

**“OROL DARDI-OLAM DARDI” MAVZUSIDAGI
SAHNALASHTIRILGAN O`YINLAR DARS ISHLANMASI**

**G.Saparaova,
Nukus DPI katta o`qituvchisi.,
E.Zaripov,
TVPKQTMOI bo`lim boshlig`i**

Syujetli-rolli o`yinlar matbuot konferensiya darslari, ilmiy konferensiya darslari, ijodiy ishbilarmonlik o`yinlari, komandalar musobaqasi darslari bilan bir qatorda didaktik o`yinli texnologiyalarga kiradi. Sahnalashtirilgan o`yinlarni tashkil etish va o`tkazish ko`proq tayyorgarlikni talab etadi.

O`yinni o`qituvchi o`quvchilar bilan birgalikda o`tilgan o`quv materiallari asosida tayyorlaydi. Bunday o`yinlarni tayyorlash o`qituvchi va o`quvchilarning Orolbo`yi hududidagi ekologik inqiroz sabablari va uni qisman bo`lsa-da bartaraf etish yo`llari to`g`risida batafsil ma`lumotga ega bo`lishini talab qiladi. Buning uchun o`quvchilar qo`shimcha adabiyotlardan foydalanishlari lozim.

Sahnalashtirilgan syujetli-rolli o`yinlar ta`lim berish bilan birga o`quvchilarning ijodiy faoliyatini yo`naltiradi; ularning o`zaro muloqot va nutq madaniyatini rivojlantiradi; mantiqiy fikrlashga va bilimlardan xulosa chiqarishga o`rgatadi. Shuning bilan birga, atrof-muxitga, ona tabiatga, o`rmon-cho`l, suv-havo, hayvonot va o`simliklar olamiga mehr-muhabbat bilan qarab, ularni asrab-avaylash zarur ekanligini tushunishlarida va tabiatni himoya qilish hissini o`quvchilarga uyg`otishi bilan dars ishlanmasi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Sahnalashtirilgan o`yinlarda ko`zda tutilgan didaktik maqsad o`quvchilar oldiga vazifa qilib quyiladi, ularning o`quv faoliyati o`yin qoidasiga batamom bo`ysundiriladi. Umumiy holda syujetli o`yinlar sahnalashtirilgan muammoni yechishga qaratilgan hayotiy vaziyatni o`quvchilar tomonidan sahnalashtirish orqali yechishdan iborat (1-jadval).

Sahnalashtirilgan syujetli-rolli o`yin darsining texnologik xaritasi (2 soat)

Texnologik bosqich	O`quvchi faoliyati	O`qituvchi faoliyati
1-bosqich Tayyorgarlik	Mavzu bo`yicha o`z rolini tanlash, qo`shimcha adabiyotlarni o`rganish	Mavzuni tanlash, rollarni bo`lib berish, o`quvchilarga maslahat berish
2-bosqich Tashkiliy	Darsning maqsadi, vaziyatni va umumiy muammoni tushunib olish	Darsning maqsadi, umumiy vaziyat va muammoni hamda uni yechishni tushuntirish.
3-bosqich Ishtirokchilar munozarasi	O`z roli bo`yicha faoliyatini konfliktli vaziyatlarni hamda mavzu bo`yicha muammoni yechishga yo`naltirish	O`quvchilar faoliyatini nazorat qilish va baholab borish.
4- bosqich Darsni yakunlash	O`qituvchi xulosasini eshitish, uyga vazifa olish	Darsni yakunlash; o`quvchilar faoliyatini baholash, uyga vazifa berish.

Sahnalashtirilgan o`yinlarni tashkil etishda o`qituvchi o`yin ishtirokchilariga mavzuni va mavzu bo`yicha tuzilgan topshiriqlarni taklif etadi. Ishtirokchilar o`z rollarini tanlab olishadi, o`z roliga muvofiq umumiy muammoni yechishda guruh bilan maslahatlashgan xolda qatnashadi. Baholashda o`quvchilarning tashkiliy faoliyati va umumiy maqsadning bajarilishidagi faoliyati hisobga olinadi. Rolli o`yinlarda bir-birini inkor etuvchi vaziyatlar paydo bo`lib turadi. Har bir ishtirokchi bu vaziyatdan chiqish uchun mantiqan to`g`ri yo`lni tanlashi zarur.

Quyida «Orol dardi-olam dardi» mavzusidagi sahnalashtirilgan o`yin darsining stsenariysi keltirilmoqda.

Sudya: Bugungi sud majlisida Orolboevaning o`z o`g`illari: ayblanuvchilar Jayhunboy va Sayhunboylar ustidan shikoyati ko`rib chiqiladi.

Hozir Orolboevaga so`z beriladi.

Orolboeva: Farzandlarim Jayhunboy va Sayhunboylar ilgari tabiat in`om etgan omonat suvni menga to`la-to`kis olib kelar edilar. Ular endi har xil sabablarni bahona qilib menga suv olib kelishmayapti. Hozir men nochor ahvolda qoldim. Farzandlarim mendan tobora uzoqlashib borishmoqda. Men ularning

diydoriga muhtojman. Men o'z farzandlarimni juda yaxshi ko'raman; ularsiz yashay olmayman. Shunday bo'lsa-da, ularning gunohlari bo'lsa jazo olishlariga qarshi emasman. Agar farzandlarimning men bilan diydor ko'rishishlariga to'sqinlik qilayotgan kimsalar borligi isbotlansa, ularni o'zim ham qattiq jazolashim mumkin. Men qo'llaydigan jazo faqat gunohkorning o'ziga yoki uning qarindosh-urug'lariga emas, balki u yashaydigan butun hudud aholisiga va qo'ni-qo'shnilarga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois tezroq gunohkor kimligini aniqlab, unga nisbatan chora ko'rishni Sud hay'atidan iltimos qilaman.

Prokuror: Orolboevaning farzandlari Jayxunboy va Sayhunboylar tabiat in'om etgan omonat suvni onasiga oxirgi 40 yil mobaynida yetkaza olmayotganligi haqida shikoyat tekshirib ko'rildi.

Farzandlar Jayhunboy va Sayhunboy layoqatli yigitlar. Ular shuhratparast kimsalar gaplariga kirib, ularning pistirmalariga duch kelganliklari, o'z onalarini uzoq vaqt davomida unutganliklari aniqlandi. Shu sababdan, hozirgi paytda Orolboevaning suvsiz nochor ahvolda qolganligi, farzandlari Jayhunboy va Sayhunboylar bilan aloqalari uzilganliklari rost bo'lib chiqdi. Lekin Orolboeva ham farzandlari Jayhunboy va Sayhunboyga gina qilib va ularning «menga to'siqlar ko'paydi»; «mendan suvni tortib olishmoqda» degan nolalariga ishonmasdan, onalik his-tuyg'ularini unutib, har xil nojo'ya harakatlar qilmoqda. U o'zidan ko'plab chang to'zonlarni ko'tarib, atrof-muhitni ifloslay boshladi. O'z suvini bug' qilib, o'z o'rnini qum va tuzli Orolcho'lga aylantirmoqda. Uning bu ishi faqat Orobo'yiga, emas balki qo'shni hududlar va yaqin mintaqalar aholisiga ham tashvish keltirmoqda. Ushbu dallillarni inobatga olib:

1. Shikoyat qilayotgan ona Orolboevaning arizasiga binoan uning o'g'illari Jayxunboy va Sayxunboylarga tegishli chora ko'rishingizni surayman.

2. Orolboevaning o'ziga ham qo'shni hududlar aholisidan tushgan shikoyatlarga asoslanib, uning o'zboshimcha harakatlari aholi salomatligiga putur yetkazganligi hisobga olinib, unga nisbatan qonuniy chora ko'rishni sud hay'atidan iltimos qilaman.

Sudya: Ayblanuvchi Jayhunboy! Siz o'zingizni gunohkor deb hisoblaysizmi?

Jayhunboy: Men o`zimni qisman aybli deb hisoblayman. Haqiqatdan deyarli 40 yil davomida men onam Orolbaeva huzuriga tabiat in`om etgan yomg`ir, qor, buloq suvlarini olib borishni uddasidan chiqa olmadim. Farzandlik burchimni ado eta olmaganimdan xijolatdaman. Lekin onaizoringa mehrim cheksiz.

Sudya: Kimda savollar bor?

Advokat: Jayhunboyga savolim bor. - Ilgari, Siz suvni qanday qilib onangizga yetkazar edingiz?

Jayxunboy: Ilgari men, kuchli va sersuv daryo edim. Onamga suv yetkazib berish uchun ko`plab to`siqlarni yenga olar edim. Buning uchun ba`zan tuproqni yuvib, o`zanimni o`zgartirib ham turardim. Hatto sho`xliq qilib bir necha joylarni suvga ham bostirganimni tan olaman. Lekin keyingi yillarda o`ng va cho`p qirg`oqlarimda ko`plab kanallar paydo bo`la boshladi. Ular suvimni mening ixtiyorimsiz majburiy tortib ola boshlashdi. Ustiga ustak, «Oz bo`lsa ham onamga olib boray» deb olib kelayotgan suvim yo`lida gidrouzellar paydo bo`ldi. Bunday qaroqchilar oldida men chorasiz qoldim.

Savol: Aholi ko`payishi sababli Siz aytgan kanallar bo`ylarida va cho`llarda ko`p yerlar o`zlashtirildi. Endilikda siz onangiz deb u yerdagi insonlarni suvsiz qoldirishni xohlaysizmi?

Jayxunboy: Yo`q, albatta. Insonlarni ham yaxshi ko`raman. Ular ham mening hurmatimni joyiga qo`yishmoqda. Hatto men haqimda ko`p qo`shiqlar aytishadi. Lekin onam Orolboevaga ham suv olib borishim kerak. Mening qiyin ahvolda qolganimni odamlar ham tushunishlarini, suvimni tejab sarflashlari, ifloslantirmasliklarini istayman. Men ham onamga suv olib borib uni rozi qilsam, deyman.

Sudya: Ayblanuvchi Sayhunboy! Siz o`zingizni gunohkor hisoblaysizmi?

Sayxunboy: Gunohimni qisman bo`ynimga olaman. Mendan ham onamiz Orolboeva qattiq xafalar. Men ham akam Jayhunboy kabi suvni onam huzuriga olib borish vazifasini uddalay olmadim. Farzand sifatida o`z burchimni ado eta olmaganim uchun aybdorman. Lekin onamga va insonlarga mehr-muruvvatim cheksiz.

Advokat: Sayhunboyga savolim bor!

- Siz insonlarga ham mehr-muruvvatim cheksiz, dedingiz. Insonlar sizning onangizga olib borayotgan suvingizni tortib olishgan bo'lsa, undan onangiz aziyat chekayotgan bir paytda nima uchun insonlardan nafratlanmaysiz.

Sayhunboy: Akam Jayhunboy aytganidek, insonlar meni ham hurmat qilishadi. Oxirgi yillari suv saqlagichlarga mening suvim sig'may qolganligidan ayrim joylarni suv bosish holatlari ham bo'lgan. Shu bois oxirgi paytlari men onamga ozroq suv olib bormoqdaman. Lekin onamga bu yetarli emas. Onamiz akamiz Jayhunboydan ko'proq suv olishga umid qilmoqda.

Advokat: Sudya janoblari! Himoyamdagi Jayhunboy va Sayhunboylar foydasiga xulosalarimni tinglash uchun so'z berishingizni surayman.

Sudya: Ruxsat beraman.

Himoyamdagi Jayhunboy va Sayhunboylarning aybi yo'q. Gunoqkorlar-bu ularning o'ng va chap qirg'oqlarida kanal qazib, suvini chanqoq cho'llarga uzatayotgan, ifloslantirayotgan va o'ylab o'tirmasdan talon-taroj qilayotgan odamlar deb hisoblayman.

Prokuror: Sudya janoblari! Xulosaga qarshilik ko'rsataman. Dalilim shuki, Jayhunboy va Sayhunboylar o'z ixtiyorlari bilan suvlarini berishgan. Hatto ular o'rinsiz sho'xlik qilib aholini suvga bostirishganlarini ham o'z bo'yniga olishmoqda. Buning ustiga ularning onasi Orolboeva o'zboshimchalik bilan qasos olish maqsadida aholi salomatligiga putur yetkazmoqda. qo'limda aholi va har xil jamoalardan kelib tushgan xatlar bor. Ushbu hujjatlarni qabul qilishingizni va ular asosida Orolboevani so'roq qilishingizni talab qilaman. Ushbu masalaga oydinlik kiritish uchun *Orolboevaga* savolim bor:

- Sizga o'g'illaringiz haqidagi xabarni kim yetkazdi?

Orolboeva: Shamol.

Prokuror: Nima uchun chang-to'zon orqali atrof-muhitni ifloslay boshladingiz?

Orolboeva: Asrlar davomida o'z bug'larim bilan sovuq havo oqimlariga to'siq bo'lib, qo'shni hududlarni qahraton sovuqdan asrab kelganman. Shu bois

shamol mendan xafa ham bo'lar edi. Keyingi paytlari farzand dog'ida u bilan do'stlashishga majbur bo'ldim. U menga o'g'illarim to'g'risida xabar yetkazadi. Farzandlarimni yo'ldan urgan insonlarni ham shu do'stim orqali jazolayman. Farzandlarim va chang-to'zon orqali odamlarga aql kiritishni istayman.

Sudya: Chang-to'zonga so'z beriladi

Chang-to'zon: Orol bo'yida mendan boshqa muammolar ham uchraydi. Orolning qurib ketishiga men aybdor emasman. Men qaysi joyda shamol bo'lsa, o'sha yerda bo'laman. Men faqat suvsiz cho'lda chang-to'zon ko'taraman.

Sudya: mutaxassis ekolog Botirboevga so'z beriladi.

Ekolog Botirboev:- Men hurmatli Orolboevaning o'tmishi va hozirgi ahvolini «yaxshi» bilaman. U yaqin o'tmishda insonning yaqin hamkori bo'lgan. Odamlar uning saxovatidan foydalanib, sohilida baliq va mo'ynani qayta ishlaydigan zavodlar qurishgan. Unda baliq ovlovchi va yuk tashuvchi kemalar suzib yurgan; Mo'ynoq va Aralsk degan portlari bo'lgan. Inson ko'proq ekin ekish va mahsulot olish maqsadida Jayhunboy va Sayhunboyning yo'lini to'sib, Orolboevani ularning suvidan mahrum qildi. Suvsizlikdan ona Orolboeva asta-sekin quriy boshladi, uning suvi qurigan 4 mln. gektar maydoni qumli va tuzli Orolqumga aylandi. Cho'llanish jarayoni yil sayin kuchayib bormoqda. Agar jarayon bartaraf etilmasa, Orolboeva yaqin 50 yilda butunlay ado bo'lishi, uning o'rnida sho'r bosgan cho'l paydo bo'lishi mumkin.

Sudya: Hurmatli Botirboev, Orolboevani avlodlarga saqlab qolish uchun nima qilish kerak?

Botirboev: Orol fojiasi bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning YuNESKO tashkiloti qoshidagi Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro tashkiloti va EKOSAN Xalqaro jamg'armasi, shuningdek, respublikamizdagi bir qancha tashkilotlar tadqiqot olib borishmoqda, Orolbo'yi muammosi bo'yicha Nukus deklaratsiyasi qabul qilingan. Bu muammoni yechish uchun dunyoning barcha mamlakatlari birgalikda ishlashi kerak. Endilikda Orol dardi dunyo dardiga aylanmoqda.

Sudya: So'z ayblanuvchilar advokati Tursunboevga beriladi.

Tursunboev: Men Orol dengiziga yetkazilgan muammolarda faqat chang-toʻzonlarni ayblash notoʻgʻri deb hisoblayman. Chunki bu chang-toʻzonlar tabiatda hech qachon bunchalik kuchli boʻlmagan. Orolni suvga toʻldirish uchun zudlik bilan uning boʻyida yuz berayotgan hodisalarning oldini olish kerak. Men ham muammoni oʻrganishga ekolog olimlarni va Xalqaro tashkilotlarni jalb etish zarur deb hisoblayman.

Sudya: Barcha shikoyatlar va ayblanuvchilar eshitildi. Sud prokuror, ekolog mutaxassis va boshqalarning fikrlariga asoslanib, hayʼat aʼzolari bilan maslahatlashgan holda quyidagi qarorga keldi:

1. Orolboeva va uning oʻgʻillari Jayhunboy va Sayhunboy gunohkor emas deb topilsin va sud zalidan ozod etilsin.

2. Jayhunboy va Sayhunboylarga onasi Orolboevaga muntazam ravishda suv yetkazib berishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish Xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan hamkorlikda olib borilsin.

3. Orolboeva ustidan shikoyat qiluvchi aholi va tashkilot barcha ekologik qonuniyatlarga qatʼiy amal qilgan holda Jayhunboy va Sayhunboylar suvidan samarali foydalanish yoʻllarini ishlab chiqsinlar.

Xulosa qilib aytganda, umuman bu maqolaning maqsadi, oʻquvchilarda Orol dengizi boʻyicha ekologik tushunchalar haqidagi bilimlarni mustahkamlash, ularni chuqur oʻrgatish hamda oʻz fikr mulohazalarini bildirish olish koʻnikmalarini shakllantiradi.